

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Komilova Dilnozaxon Abdulxaevna

Komilovadilnoza3@gmail.com

ASU, teacher of the Faculty of Preschool Education

Annotasiya: *The article substantiates the relevance of the formation of communicative competence in preschoolers, describes the factors and principles of the formation of communicative competence in children. Teachers are given pedagogical requirements and tasks for the formation of professional competence in children.*

Keywords: *communicative, competence, intensive, manipulation, method, excursion, diagnostics, monologue, dialog city, speech, plot-role, motive, social motive, reflexivity.*

Buyuk o'zgarishlar davrida hamma vaqt ta'lim-tarbiya masalasi birinchi o'ringa chiqadi. "Abdulla Avloniyning fikricha: "Tarbiya vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak uchun zarur". Bu haq gap. Ijtimoiy munosabatlar va insonlararo muloqotlar "noziklashgan" bugungi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va ularni to'laqonli muloqot ko'nikmalariga o'rgatish, ya'ni ularga munosib ta'lim-tarbiya berish bir millat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvida kommunikativlik o'ta dolzarb sanaladi. Bu esa faoliyatning samarali natijasi hamda o'zaro munosabatga kirishish jarayoni bilan bog'liqdir. Bolalarda muloqotning samarali bo'lishidagi eng zarur komponentlardan biri bu ularda kommunikativ kompetensiyaning qay darajada shakllanganligiga borib taqaladi.

Ma'lumki, insonlarning kommunikativ kompetensiyasi tarkibiga o'zaro muloqot yuritishda foydalaniladigan belgilar, ya'ni til, nutq va turli noverbal vositalar kiradi. Bu jarayonda bolalarning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich sanalgan ta'limning ilk bo'g'ini – maktabgacha ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Nutqning kommunikativ ko'rinishlari bolada juda erta, ya'ni maktabgacha ta'lim davrida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu davrda bolalar atrof-olam va jamiyat, ijtimoiy hayot haqidagi ma'lumotlarni juda tez o'zlashtiradilar. Maktabgacha yosh davrida bolalar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar butun hayoti davomida asqotadi.

Bugun mamlakatimizda ta'lim-tarbiya, jumladan, maktabgacha ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarida ularning tengdoshlari va atrofdegilar bilan muloqotga kirishishida bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Ayni paytda, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich maktabga o'qitishga o'tish bola psixikasi uchun juda qiyin sinov hisoblanadi.

Masalani o'rganish va kuzatishlarimiz natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda lugʻat boyligining maktabda oʻqitiladigan umumtaʼlim fanlarini egallashi uchun yetarli emasligi;
- bolalarning oʻz fikrini erkin ifodalashi, nutqiy muhitga mos soʻzlashish koʻnikmalarini rivojlantirishga oid didaktik taʼminotning talab darajasiga javob bermasligi;
- ota-onalarning oʻz farzandini maktab taʼlimiga nutqiy jihatdan tayyor boʻlishining mezonlari va talablaridan yetarlicha xabar topmaganliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarning muloqot jarayonida oʻz fikri, hissiyotlari va taassurotlarini namoyon eta olmayotganligi;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarning iltimos yoki maʼlumotlarni oʻz tengdoshlariga tugal aytolmasligi, tanish insonlari bilan muloqotga dadil kirisha olmasligi;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kompetensiyaviy koʻnikmalarni maqsadli shakllantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv va didaktik topshiriqlarning tizimlashtirilmaganligi;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqning dialogik shaklini yetarli darajada shakllanmaganligi hamda kommunikativlikni rivojlantirishga moʻljallangan metodik manbalarning yetishmasligi;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi uchun ijtimoiy-hissiy, nutqiy, muloqot, oʻqish va yozish malakalariga qoʻyiladigan davlat talablarini ular tomonidan samarali egallanishini taʼminlovchi didaktik tizimning ishlab chiqilmaganligi;
- maktabgacha taʼlim tashkilotlarida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yoʻnaltirilgan texnologiyalar aniqlanib, amaliyotga joriy etilmaganligi;
- maktabgacha taʼlim tashkilotlari pedagoglari tomonidan kommunikativ kompetensiyaning ijtimoiy-ruhiy aspektlari toʻliq anglanmayotganligi.

Yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklar maktabgacha taʼlim mazmuni, unga qoʻyilgan davlat talablari koʻlami doirasida bartaraf etiladi. Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik taʼminoti tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetensiyalar va nutqiy madaniyatning shakllanganligiga ham bevosita bogʻliqdir. 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son Qarori talablarida bola kompetensiyasi tushunchasiga maʼlum bir yosh davriga xos boʻlgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli boʻlgan bolaning bilimi, koʻnikmasi, malakalari hamda qadriyatlariga deb taʼrif beriladi. Maktabgacha taʼlim-tarbiya jarayonida mazkur kompetensiyani bajarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha taʼlim muassasasining “Ilk qadam” Davlat oʻquv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining soha kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiya alohida mezon sifatida belgilab berilgan boʻlib, u muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish koʻnikmasi deb izohlangan. Shu bilan bogʻliq holda mazkur tadqiqot davlatning ijtimoiy buyurtmasi talablarini bajarishga oid vazifalarni ham nazarda tutadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktabgacha taʼlim talablaridan biri sifatida zamonaviy taʼlim tendensiyalariga tayaniladi.

Davlat talablarining “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi”da maktabgacha katta yoshdagi bolalar tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodirligi, muloqot davomida o‘z fikrini, hissiyotlari va tassurotlarini namoyon etishi, tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishishi, ijtimoiy xulqning qoida va me’yorlarga bo’ysunishi ko’rsatilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy rivojlanishga oid fikr va mulohazalar barcha jabhadagi muvaffaqiyatlarimizning dasturulamali sanaladi. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan jamiyatda qabul qilingan me’yor va talablarni o’zlashtirish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni anglash, tengdoshlari, kattalar bilan bo’ladigan muloqotni rivojlantirish, muloqotda mustaqil bo’lish, o‘z xatti-harakati va qarashlarini maqsadli yo’naltirish, ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish, tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyatga tayyor turish, kattalar va o’rtoqlariga hurmat bilan munosabatda bo’lish kabi talablarni amalga oshirishda ham mazkur fikr va mulohazalar katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son. <http://www.lexuz.uz>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son farmoni. – T.: Adolat, 2017. – 112 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida Qaror. 29.12.2016-y., PQ-2707, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-y., 1-son, 11-modda; 35-son, 923-modda. <http://www.lexuz.uz>.

4. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida Qaror. 9.09.2017-y., PQ-3261, “Xalq so’zi” gazetasi. 2017-y., 11 sentabr. – № 181(6875).

5. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Pedag. fan. nom. ... diss. avtoref. – T., 1998. – 25 b.

6. Abdullayeva N.SH. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Pedag. fan. nom. ... diss. avtoref. – T., 2019. – 26 b.

7. Azizova Z. F. Qo’g’irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish: Pedag. fan. b. f. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – T., 2019. – 26 b.

8. Arushanova A. G. Rech i rechevoye obsheniye detey: Razvitiye dialogicheskogo obsheniya: Metod. posobiye dlya vospitatelya. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2005. – 128 s.

9. Alifanova YE. M. Formirovaniye kommunikativnoy kompetentnosti detey doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta sredstvami teatralizovannix igr: Avtoref. diss. kand. ped. nauk. – Volgograd, 2001. – 15.s.